

# "O'zkiyosanoat" Ajda korrupsiyaga qarshi kurashishga oid olib borilgan ishlar

// 27 October 2023 yil

<https://pda.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkiyosanoat-ajda-korrupsiyaga-qarshi-kurashishga-oid-olib>

Korrupsiyaga qarshi kurash zamonaviy dunyoning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq bu illatiga qarshi kurashish masalasiga alohida e'tibor qaratib kelingan. Chunki poraxo'rlik — hokimiyat va boshqaruv asoslarini yemiradigan, uning obro'siga putur yetkazadigan, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlariga daxl qiladigan havfli jinoyi hodisalardan biri. Shu boisdan davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev o'z vakolatiga kirishishi bilan Prezident sifatida imzo chekkan birinchi hujjat "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Qonuni bo'lgan.

Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, chek qo'yish, imkoniyat yaratib beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni kuchaytirish, korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha xalqaro hamkorlikni kengaytirish. Davlat tomonidan qabul qilinib kelayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan.

Korrupsiyaga qarshi olib borilayotgan chora-tadbirlarning asosiy maqsadi nafaqat korrupsiya oqibatlariga qarshi kurashish, balki korrupsiyaning namoyon bo'lishiga olib keladigan omillarni, shu jumladan, uning oldini olish sohasidagi ishlarni bartaraf etishdan iborat.

"O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, jamiyat va tarmoq korxonalarida "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish siyosati" talablariga muvofiq xizmat vazifasiga ko'ra korrupsiyaviy xavf-xatarlar ehtimoli yuqori va o'rta bo'lgan **8454** nafar xodim manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi yoki mavjud emasligi to'g'risidagi deklaratsiyani to'ldirdi. "O'zkiyosanoat" Ajda 120 nafar, "Navoiyazot" Ajda 1076 nafar, "Qo'ng'irotda soda zavodi" MCHJ QQ 1140 nafar, "Maksam-Chirchiq" Ajda 5824 nafar, "Dehqonobod kaliy zavodi" Ajda 161 nafar, "Ammafos Maksam" Ajda 88 nafar va "O'zkiyoiimpeks" MCHJda 45 nafar xodim deklaratsiya to'ldirishgan. Va bunda deklaratsiya to'ldirganlar jamiyat va tarmoq korxonalarida bo'yicha 100% ni tashkil etgan. Deklaratsiyalar tahlil qilinganda, joriy yilning o'tgan davri mobaynida **67 ta** mas'ul xodimlarda real, **122 ta** holatda esa ehtimoliy (potensial) manfaatlar to'qnashuvi holati aniqlandi.

Jumladan, "Maksam-Chirchiq" Ajda **30 ta**, "Navoiyazot" Ajda **19 ta**, "Ammofos-Maksam" Ajda **10 ta**, "Dehqonobod kaliy zavodi" Ajda **3 ta**, "Qizilqum fosforit kompleksi" MCHJda **5 ta** holatda o'zaro yaqin qarindoshlar bevosita qo'l ostida yoki rahbarligida ishlashi bilan bog'liq vujudga kelgan manfaatlar to'qnashuvi aniqlandi. Boshqaruv raislarining ko'rsatmalariga ko'ra xodimlarni korxonaning boshqa sexlari va lavozimlariga o'tkazish bilan manfaatlar to'qnashuvini oldini olish choralari ko'rilmoqda.

Ehtimoliy holatlar aniqlangan **122 nafar** xodimlar bilan jamiyat tomonidan tasdiqlangan "Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati", "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish buyicha Nizom", "Odob-axloq Kodeksi" talablari buyicha qo'shimcha tushuntirish va profilaktik tadbirlar o'tkazildi. Ushbu deklaratsiyalash tizimida korrupsiyaning oqibati bilan emas, balki uni oldini olish, sabablari bilan kurashish, chek qo'yish imkonini beradi.

"O'zkiyosanoat" AJ ilg'or xalqaro standartlar asosida profilaktika tizimi va korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni olib bormoqda. Tashkilot faoliyatining ochiqligi, oshkoraligi va shaffofligini ta'minlash orqali davlat boshqaruvi organlari ustidan samarali jamoatchilik nazoratini amalga

oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi.

2023-yilning o'tgan 9 oyi davomida korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar "O'zkiyosanoat" AJ markaziy apparati, "Navoiyazot", "Dehqonobod kaliy zavodi", "Maksam-Chirchiq", "Ammofos-Maksam", "O'zkiyosanoatloyiha" AJlari, "Qizilqum fosforit kompleksi", "O'zkiyoimpeks" MCHJlarida amalga oshirildi.

Misol uchun, "Navoiyazot" AJning mas'ul mansabdor shaxslariga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan Jinoyat Kodeksining **167 moddasi 3-qismi "a," bandi, 205 moddasi 2-qismi "a" bandi** bilan qo'zg'atilgan jinoyat ishi doirasida Jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini taftish qilish jarayonida qo'yidagi qonunbuzilish holatlari aniqlangan.

17 turdagi mineral o'g'it va kimyoviy moddalarni birja savdolarisiz va oldindan to'lovlarsiz realizatsiya qilib yuzaga kelgan qarzdorlikni yopish uchun, turli asbob-uskunalarini qimmat narxlarda barter qilib jarimalarni undirmasdan, korxonalarini rastrata qilish yo'li bilan ko'p miqdorda zarar yetkazilgan;

- asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi to'g'risidagi Nizom talablari bajarilmaganligi natijasida jamiyatning **31-sexida 1 199,7 tonna** demontajdan chiqqan qora metallar kamomadiga yo'l qo'yilgan;

- Jamiyat mas'ul xodimlari tomonidan 61,4 kg.platina, 15,2kg. palladiy va 1,8 kg. rodiy qimmatbaho metallarning asossiz me'yoridan ortiqcha xarajatga chiqarilganligi va 916-sexdagi kuchsiz azot kislotasi filtrini asossiz tozalash natijasida qimmatbaho metallar kamomadiga yo'l qo'yilgan;

- Jamiyatga qarashli 107-sexda **9 turdagi** asosiy vosita va tovar moddiy boyliklari kamomadiga yo'l qo'yilgan;

- Mineral o'g'itlarni birja savdolari orqali sotishda belgilangan talablarga zid ravishda mahsulotning narxiga, talabiga, taklifiga va uni yetkazib berish shartlariga sun'iy ravishda ta'sir etib, talabda belgilangan joylardan yuklab jo'natilmasdan raqobatni cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlarni amalga oshirib, **201 ta holatda** arzon narxlarda ishlab chiqarish sexidan mahsulotlar yuklangan;

- Jamiyat va mineral o'g'itlar sotib oluvchilar o'rtasida birja savdolari orqali tuzilgan mahsulot sotib, shartnomalari shartlarining xaridorlar bajarmaganligi natijasida **260 ta holatda** jarimalar asossiz undirilmagan;

- Jamiyat va mineral o'g'itlar sotib oluvchilar o'rtasida birja savdolari orqali tuzilgan mahsulot sotib olish shartnomalari shartlarining xaridorlar bajarmaganligi sababli xisoblangan jarimalar asossiz undirilmagan va soliqlar byudjetga hisoblanib to'lanmagan;

- Jamiyat ishlab chiqarayotgan temir xloridi mahsuloti xom ashyolari Jamiyat raisining 1-o'rinbosari ta'sisshiligidagi tashkil qilingan "Eko Xim prom" MCHJga sotilishi natijasida daromad olinmasdan qolgan;

Tarmoq korxonalari omborxonalaridagi tovar-moddiy boyliklarini saqlash sohasida kamomadlarga yo'l qo'yilishi holatlari ham aniqlangan.

Joriy yilning 1-choragida "O'zkiyosanoat" AJ hamda "Navoiyazot" AJ Komplayens boshqarmalari tomonidan "Navoiyazot" AJga tegishli Xorazm viloyati, Urganch shahridagi "Hasanota" MCHJ ga qarashli 5-sonli vakolatli ijara omboridagi tayyor mahsulotlarning saqlanishi yuzasidan xizmat tekshiruv o'tkazildi. Mazkur tekshiruv jarayonida, "Navoiyazot" AJga tegishli bu ijara omborida **1224 tonna** tayyor mahsulotlarning kamomadi aniqlangan. "Xasanata" MCHJ mansabdor shaxslari o'zlariga ishonib topshirilgan va ixtiyorida bo'lgan **1224 tonna** ammiakli selitra mahsulotini jismoniy va yuridik shaxslarga naqd pul shaklida sotib, rasmiy hujjat hisoblangan hisobotga mahsulotlar qoldig'i mavjudligi haqidagi soxta ma'lumotlarni kiritgan hamda o'z javobgarligida bo'lgan Jamiyat mol-mulkini ko'p miqdorda o'zlashtirish yo'li bilan talon-taroj qilganligi ma'lum bo'ldi. "Navoiyazot" AJning mas'ul mansabdorlari har oy yakuni bo'yicha o'tkazilgan xatlov jarayonlarida yuzaga kelgan kamomad yashirib kelganligi ham yuzaga chiqdi.

Xizmat tekshiruv bo'yicha to'plangan materiallar aybdorlarga qonuniy chora ko'rish hamda yetkazilgan zararni undirish maqsadida Navoiy viloyat prokuraturasiga yuborildi. Natijada, viloyat prokuraturasi tomonidan holat bo'yicha Jinoyat Kodeksining **167-moddasi 3 qismi, 228-moddasi 1-qismi** bilan jinoyat ishi qo'zg'atildi. Hozirgi kunda jinoyat ishi doirasida olib borilayotgan tergov davomida "Xasanata" MCHJning mansabdorlaridan yetkazilgan zararning bir qismi undirilib, uning qolgan qismini to'liq undirish choralari ko'rilmogda.

Shuningdek, "O'zkiyoimpeks" MCHJdan yaroqlilik muddati o'tgan **183 tonna** ammiakli selitra mineral o'g'itini qayta ishlash uchun qabul qilishda aniqlangan qonunbuzilish holati bo'yicha xizmat tekshiruv o'tkazildi. Tekshiruv davomida, O'zkiyoimpeks" MCHJ tomonidan ammiakli selitra "tonna" va "qop"lar hisobida qabul qilinib, yaroqli bo'lgan davrida sotish choralari ko'rilmaganidan, yaroqlilik muddati o'tgan mineral o'g'itlar faqat "qop"lar soni bo'yicha hisoblanib, noto'g'ri topshirilganligi va mas'ul shaxslar tomonidan yaroqlilik muddati o'tgan mineral o'g'itlarni yuklab jo'natish va qabul qilishni komissiya asosida to'g'ri tashkil etilmaganligi hamda boshqa nomuvofiqliklar yuzasidan o'z vaqtida tegishli choralar ko'rilmaganligi natijasida jami **161 tonna 532 mln.dan** ortiq kamomadni kelib chiqqan. Hujjatlar Navoiy viloyat prokuraturasiga yuborilgan. O'z navbatida prokuratura tomonidan Jinoyat Kodeksining **167, 209, 205** moddalari bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib tergov harakatlari olib borilmogda.

Bundan tashqari, Qashqadaryo viloyati DXX boshqarmasi tomonidan "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ mansabdorlariga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 167-moddasi 3-qismi, 205-moddasi 2-qismi bilan qo'zg'atilgan jinoyat ishi doirasida tergov harakatlari olib borilmogda. Tergovda aniqlanishicha, korxonalar ishchi-xodimlariga ish haqi va unga teng qo'shimcha to'lovlar, moddiy yordam, mukofot va rag'batlantirish pullari, uy-joy olish uchun ajratilgan pul mablag'lari asossiz to'lab berilishi hamda mansabdor shaxslarning o'z xizmat vakolatlarini suiste'mol qilganliklari oqibatida kelib chiqqan tayyor-mahsulotlarning omborxonalaridagi kamomadi natijasida AJga ko'p miqdorda zarar yetkazilgan. Holatlar bo'yicha jinoyat ishi materiallari sud organlariga yuborilgan.

Ta'kidlash lozim, joriy yilning o'tgan davrida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda o'tkazilgan tadbirlarda korxonalar mansabdor shaxslaridan zararning bir qismi undirildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda nafaqat kompayens xizmati, balki jamiyat va tarmoq korxonalarida faoliyat yuritadigan har bir xodimning yordami zarur. Shu maqsadda "O'zkiyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida "Antikorrupsion nazorat" nomli [t.me](https://t.me/uzkimyosanoatanticorbot) uzkiyosanoatanticorbot "Telegram-bot" ishga tushirildi. Bot orqali korrupsion holat bo'yicha murojaat yuborish va aloqa ma'lumotlarini olish mumkin. Har bir murojaat ro'yxatga olinadi va murojaatchi bot orqali xabardor qilib boriladi.

Muxtasar aytganda, korrupsiya O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga xizmat qiluvchi inson huquqlari sohasidagi xalqaro normalar ijrosini murakkablashtiruvchi omil. Uning ko'lami davlat va ayniqsa korxonalarining iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Qolaversa, korrupsiya insonning shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarini amalga oshirish yo'lidagi katta to'siq. Bu illat jamiyat hayotining barcha sohalarida ishtirok etish bilan bog'liq ochiqlik, oshkoralik, javobgarlik, kamsitilmaslik va inson huquqlarini himoya qilish tamoyillarini buzadi.

O'zbekistonda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida korrupsiyaning oldini olish bilan bog'liq vaziyat izchil yaxshilanib borayotgani xalqaro miqyosda e'tirof etilmogda. Buni O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rni yaxshilanib borayotganidan ham ko'rish mumkin.

Umuman olganda, korrupsiya hodisasiga so'zning keng ma'nosida yondashadigan bo'lsak, bu shunchaki jinoyat yoki huquqbuzarlik emas, balki ma'naviy buzilish holati. Shunday ekan, unga qarshi kurashda nafaqat davlat organlari, balki, jamiyat va umuman barcha fuqarolarimiz mas'ul.

**"O'zkimyosanoat" AJ Korrupsiyaga qarshi kurashish va  
komplayens boshqarmasi**